

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING MODIFIKASION MODEL

МОДИФИКАЦИОННАЯ МОДЕЛЬ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ ДО- ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

A MODIFICATION MODEL FOR PREPARING PRESCHOOL- AGE CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH

ABDUSAMATOVA NARGIZA JAMOLIDINOVNA
NamDPI dotsenti

Аннотация: Ushbu maqolada integrativ yondashuv asosida 5–7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning modifikasion modeli ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Model maqsadli, mazmunli, texnologik va natijaviy-tashxislash bloklaridan iborat bo'lib, ichki integratsiya, fanlararo integratsiya, faoliyatlararo integratsiya, ta'lim sub'yektlari integratsiyasi va texnologik integratsiya turlarini bir tizimga birlashtiradi. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, modellash, tajriba-sinov va statistik usullardan foydalanilgan. Taklif etilgan model bolalarning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini kompleks ta'minlash orqali maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: Integrativ yondashuv, modifikasion model, maktabgacha ta'lim, maktabga tayyorlik, fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiya, bolani rivojlantirish

Аннотация: В статье научно-теоретически обоснована модификационная модель подготовки детей 5–7 лет к школьному обучению на основе интегративного подхода. Модель включает целевой, содержательный, технологический и результативно-диагностический блоки и объединяет в единую систему внутреннюю, межпредметную, межвидовую, субъектную и технологическую интеграцию. В исследовании применялись методы педагогического наблюдения, моделирования, опытно-экспериментальной работы и статистической обработки данных. Предложенная модель способствует успешной адаптации детей к школьному обучению за счёт комплексного обеспечения их интеллектуального, социального и личностного развития.

Ключевые слова: интегративный подход, модификационная модель, дошкольное образование, готовность к школе, межпредметная интеграция, компетентностный подход, педагогические технологии, развитие ребёнка

Abstract: This article provides a scientific and theoretical justification for a modification model designed to prepare children aged 5–7 for school education based on an integrative approach. The model consists of goal-oriented, content-based, technological, and diagnostic-outcome blocks, integrating intra-subject, interdisciplinary, inter-activity, subject-participant, and technological integration into a unified system. The study employed methods of pedagogical observation, modelling, experimental work, and statistical data analysis. The proposed model enhances children's successful adaptation to school education by comprehensively ensuring their intellectual, social, and personal development.

Keywords: integrative approach, modification model, preschool education, school readiness, interdisciplinary integration, competency-based approach, pedagogical technologies, child development

KIRISH

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash masalasi ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashtirish, axborot oqimining keskin oshishi va ta'lim mazmunining yangilanishi sharoitida bolani faqat ma'lum bilimlar bilan qurollantirish yetarli bo'lmay, balki uning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini kompleks tarzda ta'minlash talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan integrativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning modifikatsion modelini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur modelning zarurligi, avvalo, amaldagi ta'lim jarayonida kuzatilayotgan ayrim kamchiliklar bilan izohlanadi. Jumladan, ko'p hollarda ta'lim mazmuni alohida yo'nalishlar bo'yicha parchalangan holda berilmoqda, bu esa bolada yaxlit dunyoqarashning shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida bolaning individual xususiyatlari va rivojlanish sur'ati yetarli darajada hisobga olinmayotgani ham kuzatiladi. Bu esa maktab ta'limiga o'tish jarayonida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Integrativ yondashuv esa mazkur muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. U ta'lim mazmunini turli sohalar kesimida emas, balki o'zaro bog'liq va uyg'un tizim sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu esa bolada bilim, ko'nikma va malakalarning bir butun holda shakllanishini ta'minlaydi. Shuningdek, integrativ yondashuv bolaning bilish faolligini faollashtiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va uning maktab ta'limiga psixologik tayyorgarligini kuchaytiradi. Modifikatsion modelning ahamiyati shundaki, u maktabgacha ta'lim jarayonini tizimlashtiradi va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur model orqali:

- ta'lim mazmuni integratsiyalashtiriladi;

- zamonaviy pedagogik texnologiyalar samarali qo'llaniladi;

- bolaning rivojlanishi kompleks baholanadi;

- maktabga tayyorgarlik darajasi oshiriladi.

Shu bilan birga, ushbu model pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish imkonini beradi hamda ta'lim amaliyotida innovatsion yondashuvlarni joriy etishga xizmat qiladi.

Tadqiqot ishida mazkur modifikatsion model markaziy o'rinni egallaydi. Chunki u tadqiqotning nazariy va amaliy qismlarini o'zaro bog'lovchi asosiy zveno hisoblanadi. Aynan ushbu model asosida tajriba-sinov ishlari tashkil etiladi, uning samaradorligi eksperimental ravishda tekshiriladi va olingan natijalar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Shu o'rinda "modifikatsion model" tushunchasining mazmuni va mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashni joiz deb topdik.

Ilmiy tadqiqotlarda "model" tushunchasi muayyan ob'yekt, jarayon yoki tizimning soddalashtirilgan, nazariy jihatdan asoslangan va amaliyotda qo'llashga mo'ljallangan ifodasi sifatida qaraladi. Model orqali o'rganilayotgan jarayonning tuzilishi, tarkibiy qismlari, ular o'rtasidagi bog'liqlik hamda rivojlanish mexanizmlari ochib beriladi.

USULLAR.

Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, suhbat, modellashtirish, loyihalashtirish, tahlil, tashxis, pedagogik tajriba-sinov, ma'lumotlarni mujassamlashtirish, taqqoslash, solishtirish, ekspert baholash, umumlashtirish va statistik ishlov berish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yu.K. Babanskiy pedagogik jarayon samaradorligini oshirishda uni tizimli ravishda tashkil etish, ya'ni maqsad, mazmun, metod va natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash zarurligini ilgari suradi. Bu fikr

modifikasion modellarni ishlab chiqishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xalqaro tashkilotlar ham ta'lim jarayonini modernizatsiya qilishda modellashtirish va integratsiya masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Xususan, OECD tomonidan ilgari surilgan "tayanch kompetensiyalar" konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim jarayoni bolada faqat bilim emas, balki:

- muammo yechish;
- tanqidiy fikrlash;
- ijtimoiy hamkorlik kabi ko'nikmalarni

shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Bu esa ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni integratsiyalashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shuningdek, UNESCO ta'limni "uzluksiz va integratsiyalashtirilgan rivojlanish jarayoni" sifatida talqin qiladi hamda erta yoshdan boshlab bolaning har tomonlama (kognitiv, ijtimoiy, emosional) rivojlanishini ta'minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Bu esa maktabgacha ta'limda integrativ va modifikasion modellarni ishlab chiqishning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Yuqoridagi ilmiy va xalqaro yondashuvlarga tayangan holda, modifikasion model - mavjud pedagogik tizimni tahlil qilish, uning samarali jihatlarini saqlab qolish va zamonaviy talablar asosida qayta qurish orqali yangilangan, integratsiyalashtirilgan va rivojlantiruvchi pedagogik tizimni yaratishga qaratilgan ilmiy-amaliy konstruksiya sifatida talqin etiladi.

Modifikasion modelning mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mavjud ta'lim amaliyotini tanqidiy tahlil qilish;
- aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish;
- innovasion yondashuv va texnologiyalarni joriy etish;
- pedagogik jarayon samaradorligini oshirishga qaratilgan yangilangan tizimni yaratish.

Pedagogik tadqiqotlarda modifikasion

model, odatda, tizimli-strukturaviy yondashuv asosida quriladi va u o'zaro bog'liq bir nechta komponentlardan tashkil topadi: maqsadli, mazmunli, texnologik va natijaviy-tashxislovchi bloklar. Bu esa modelning yaxlitligini ta'minlaydi va uni amaliyotda qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Modifikasion modelning yana bir muhim xususiyati — uning moslashuvchanligi va dinamikligidir. Ya'ni u ta'lim jarayonidagi o'zgarishlar, ijtimoiy talablar, ehtiyojlar va zaruriyatlar va bolalarning individual xususiyatlariga mos ravishda takomillashib borish imkoniyatiga ega.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida modifikasion modelni qo'llash ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Chunki bu bosqichda bolaning rivojlanishi ko'p qirrali bo'lib, u turli faoliyat turlari va ta'lim yo'nalishlarining integratsiyasi orqali samarali ta'minlanadi. Shu jihatdan, integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan modifikasion model bolani maktab ta'limiga har tomonlama tayyorlashning samarali vositasi hisoblanadi. Shu bois integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan modifikasion model bolaning intellektual, ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishini bir vaqtning o'zida ta'minlashga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning modifikasion modeli strukturasida integratsiya, innovasion texnologiya va rivojlantiruvchi muhit ustuvorligiga tayanildi va model maqsadli, mazmunli, texnologik va natijaviy tashhislash bloklarga ajratildi.

Modelning maqsadli blokida ijtimoiy zaruriyat, maqsad va yondashuvlar o'z ifodasini topgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy talablaridan biri hisoblanadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartida maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi sifatida bolaning

har tomonlama — intellektual, ijtimoiy, emosional va jismoniy rivojlanishini ta'minlash hamda uni maktab ta'limiga maqsadli tayyorlash belgilangan.

Mazkur Davlat standartiga muvofiq, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash muhim ijtimoiy zaruriyat bo'lib, u bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. MTTlarda maktabga tayyorgarlik bolaning bilish faolligi, mustaqil fikrlashi, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olishi va o'quv faoliyatiga psixologik tayyorligi kabi ko'rsatkichlar orqali namoyon bo'ladi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash nafaqat ijtimoiy zaruriyat, balki ijtimoiy buyurtma sifatida ham namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, tadqiqotimizning maqsadi integrativ yondashuv asosida katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirishdan iborat bo'lib, zamonaviy xalqaro yondashuvlarda ta'lim jarayonida bolada muammo yechish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Bu esa ta'lim mazmunini faqat alohida bilimlar orqali emas, balki ularning o'zaro bog'liqligi - integratsiyasi asosida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Shu bois modelning maqsadida ko'rsatib o'tilgan integrativ yondashuv asosida katta va tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga tayyorlashning metodik tizimini takomillashtirish zamonaviy ta'lim talablari, davlat standarti va xalqaro yondashuvlar asosida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash zarurati bilan belgilandi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Modifikasion modelda maktabgacha ta'lim va tarbiya jarayoniga integrativ, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va tizimli yondashuvlar uyg'unligida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini oshirish imkoniyatlari ochib berildi.

Integrativ yondashuv ta'lim mazmuni, shakllari va faoliyat turlarini o'zaro bog'liq holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu yondashuvda bola bilimni alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida qabul qiladi. Maktabgacha ta'limda integratsiya:

- nutq, matematika, atrof-muhitni o'rganish kabi sohalarni birlashtiradi
- o'yin, muloqot va amaliy faoliyat orqali amalga oshadi
- bolaning kompleks rivojlanishini ta'minlaydi.

Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda tizimli yondashuv esa ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida qarashni nazarda tutadi. Bunda ta'lim maqsadi, mazmuni, metodlar, vositalar va natija o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida integrativ, kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va tizimli yondashuvlarning uyg'unligi bolalarni maktab ta'limiga samarali tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ushbu yondashuvlar o'zaro bir-birini to'ldirib, bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi yaxlit pedagogik tizimni shakllantiradi.

Modifikasion modelning mazmunli blokida katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorlash komponentlari e'tiborga olindi. Katta va tayyorlov guruhlarida motivasion-yo'naltiruvchi, faoliyatli-rivojlantiruvchi va nazorat-refleksiv bosqichlarning izchil tashkil etilishi bolalarni maktab ta'limiga bosqichma-bosqich va samarali tayyorlash imkonini beradi.

Motivasion-yo'naltiruvchi bosqich (katta guruh, 5-6-yosh) bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash jarayonining dastlabki poydevorini yaratadi va asosan motivatsiya hamda yo'naltirish funksiyasini bajaradi. Bu bosqichda bolada o'qishga qiziqish uyg'otilib, maktab haqida ijobiy tasavvurlar shakllantiriladi, bilishga bo'lgan ichki ehtiyoj

rivojlantiriladi hamda elementar o'quv faoliyatiga yo'naltirish amalga oshiriladi.

Faoliyatli-rivojlantiruvchi bosqich (tayyorlov guruh, 6–7 yosh) modelning asosiy va hal qiluvchi qismi bo'lib, bolaning barcha tayyorgarlik komponentlarini faol rivojlantirishga qaratiladi, ya'ni bu bosqichda bola faol sub'yekt sifatida ishtirok etadi. Bolalar bilimlarni amaliy faoliyat orqali o'zlashtiradilar, integrativ mashg'ulotlar orqali ularning kompleks rivojlanishi ta'minlanadi.

Bu bosqichda:

- muammoli ta'lim elementlari;
- integrativ mashg'ulotlar (nutq + matematika + atrof-olam);
- guruhli ishlar va syujetli-rolli o'yinlar;
- tadqiqot va amaliy topshiriqlardan keng foydalaniladi.

Nazorat-refleksiv bosqich ta'lim jarayonining yakuniy qismi bo'lib, baholash va tahlil qilish funksiyasini bajaradi. Bu bosqichda bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasi aniqlanadi, erishilgan natijalar tahlil qilinadi hamda bolada o'z-o'zini baholash (refleksiya) ko'nikmalari shakllantiriladi.

Modifikasion modelda integrativ yondashish turlari sifatida ichki integratsiya; fanlararo integratsiya; faoliyatlar integratsiyasi; ta'lim sub'yektlari integratsiyasi, texnologik integratsiyalar ham kiritilgan. Integrativ yondashuv tizimida ichki integratsiya (intrainTEGRatsiya) muayyan ta'lim sohasi doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalarning o'zaro bog'liq holda birlashtirilishi va yaxlit tizim sifatida tashkil etilishini anglatadi, ya'ni bu turda integratsiya bir fan yoki bir rivojlanish yo'nalishi ichida amalga oshiriladi.

Ichki integratsiyaning mohiyati shundaki, u ta'lim mazmunini alohida elementlar ko'rinishida emas, balki o'zaro uzviy bog'langan holda o'zlashtirishga yo'naltiradi. Bu esa bolada bilimlarning tizimlilik va yaxlitligini ta'minlaydi. Ichki integratsiya quyidagi jihatlar bilan xarakterlanadi:

- bir sohadagi bilimlarning uzviy bog'liqligi;

- ta'lim mazmunining izchil va bosqichma-bosqich berilishi;

- oddiydan murakkabga qarab rivojlanish;

- bilim, ko'nikma va malakalar (komptensiyalar)ning bir vaqtda shakllanishi.

Shuningdek, bizning integrativ yondashuv asosidagi modifikasion modelimizda ichki integratsiya quyidagi mexanizm sifatida ham ishtirok etadi:

Integrativ yondashuv tizimida fanlararo integratsiya turli o'quv sohalari va ta'limiy faoliyat (mashg'ulot)lar o'rtasidagi mazmun, metod va tushunchalarning o'zaro bog'lanishi hamda yagona pedagogik jarayonda uyg'unlashtirilishini anglatadi.

Fanlararo integratsiya eng avvalo turli o'quv sohalari mazmunini o'zaro bog'liq holda uyg'unlashtirishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, u maktabgacha yoshdagi bolalarda tizimli dunyoqarash, kompleks fikrlash va maktab ta'limiga tayyorlik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bu integratsiya turi ta'lim mazmunini alohida fanlar doirasida cheklamaydi, balki ularni o'zaro aloqada, bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida tashkil etadi. Natijada bolada yaxlit dunyoqarash, tizimli fikrlash va turli sohalarni bog'lay olish qobiliyati shakllanadi.

Integrativ yondashuv tizimida faoliyatlararo integratsiya maktabgacha ta'lim jarayonida turli faoliyat turlarining (o'yin, o'quv, mehnat, ijodiy, muloqot faoliyatlari) o'zaro uyg'unlashuvi va bir butun pedagogik jarayon sifatida tashkil etilishini anglatadi.

Faoliyatlararo integratsiya maktabgacha ta'lim jarayonida turli faoliyat turlarini o'zaro bog'liq holda tashkil etishga qaratilgan pedagogik yondashuv bo'lib, u bolaning kognitiv, ijodiy, ijtimoiy va harakat faolligini uyg'un rivojlantirish orqali uni maktab ta'limiga samarali tayyorlashga xizmat qiladi.

Ushbu integratsiya turi bolaning

rivojlanishini alohida faoliyatlar doirasida emas, balki ularning o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tizimi orqali ta'minlashga qaratilgan. Faoliyatlararo integratsiyaning asosiy mohiyati shundaki, unda bolaning turli faoliyat turlari birlashtirish orqali ta'limni hayotiy va tabiiy jarayonga yaqinlashtirish, bir faoliyatni ikkinchisini to'ldiruvchi vositaga aylantirish hamda bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Ta'lim sub'yektlari integratsiyasi — maktabgacha ta'lim jarayonida barcha ishtirokchilarning (bola, pedagog, ota-ona va mutaxassislar) o'zaro hamkorlikka asoslangan yagona pedagogik tizimda faoliyat yuritishi bo'lib, u bolaning maktab ta'limiga kompleks tayyorgarligini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. U ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha sub'yektlarning — ya'ni bola, pedagog, ota-ona, psixolog va boshqa mutaxassislarning o'zaro hamkorlikda, yagona maqsadga yo'naltirilgan faoliyatini anglatadi.

Ta'lim sub'yektlari integratsiyasi ta'lim jarayonini yakka shaxs faoliyati emas, balki hamkorlikka asoslangan tizimli jarayon sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu esa bolaning rivojlanishiga ta'sir etuvchi barcha omillarni uyg'unlashtirish imkonini beradi. Ta'lim sub'yektlari integratsiyasining mohiyati shundaki, u bolaning rivojlanishini birgina tarbiyachi yoki ta'lim muassasasi emas, balki barcha ishtirokchilarning uyg'un faoliyati orqali ta'minlashga qaratilgan.

Bu jarayonda har bir sub'yekt o'z funksiyasini bajargan holda umumiy pedagogik maqsadga xizmat qiladi.

Ta'lim sub'yektlari integratsiyasida ishtirokchilarning asosiy roli va vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

1. Tarbiyachi (pedagog): ta'lim jarayonini tashkil etadi; metod va texnologiyalarni tanlaydi; bolaning rivojlanishini kuzatadi.

2. Bola: ta'lim jarayonining faol sub'yekti sifatida bilimni mustaqil o'zlashtiradi va faol

ishtirok etadi.

3. Ota-ona: Bolani uyda qo'llab-quvvatlaydi; pedagog bilan hamkorlik qiladi; tarbiyaviy jarayonni davom ettiradi.

4. Psixolog, jismoniy tarbiya yo'riqchisi, musiqa rahbari, xorijiy til o'qituvchisi va boshqa mutaxassislar: bolaning umumiy va psixologik holatini tahlil qiladi; individual yordam ko'rsatadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida integrativ yondashuvni samarali amalga oshirishda texnologik integratsiya muhim o'rin tutadi. Texnologik integratsiya deganda ta'lim jarayonida turli pedagogik, axborot-kommunikasion va interaktiv texnologiyalarni o'zaro uyg'un holda qo'llash orqali bolaning rivojlanishini ta'minlash tushuniladi. Bunday yondashuvda ta'lim jarayoni faqat an'anaviy usullar bilan cheklanib qolmaydi, balki zamonaviy texnologiyalar (STEAM, raqamli, multimedia, interaktiv va o'yin texnologiyalari) bilan boyitiladi. Bu esa bolaning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshiradi va o'quv materialini samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, texnologik integratsiya maktabgacha ta'lim jarayonida an'anaviy va zamonaviy pedagogik hamda axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish orqali bolaning kognitiv, ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlovchi muhim pedagogik yondashuv bo'lib, u bolaning maktab ta'limiga samarali tayyorgarligini ta'minlashda strategik ahamiyatga egadir.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 5–7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda integrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan modifikasion model muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u bolaning maktabga kompleks tayyorgarligini ta'minlashda tizimli pedagogik asos vazifasini bajaradi.

XULOSA

Bu modelning ahamiyati shundaki, u maktabgachata'lim jarayonini an'anaviy bilim berish tizimidan yaxlit, integratsiyalashgan

pedagogik jarayonga aylantiradi. Natijada bola turli fan va faoliyatlar orqali emas, balki ularning o‘zaro bog‘liqligi asosida bilim va ko‘nikmalarni yaxlit holda o‘zlashtiradi. Modelning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- 5–7 yoshli bolalarning intellektual rivojlanishini tizimli ta‘minlaydi;
- kommunikativ, ijtimoiy va shaxsiy tayyorgarlikni uyg‘un holda shakllantiradi;
- maktab ta‘limiga psixologik moslashuvni yengillashtiradi;
- bolada mustaqil fikrlash, muloqot va o‘quv faoliyatiga tayyorlikni rivojlantiradi;
- ta‘lim jarayonini an‘anaviy va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligida tashkil etish imkonini beradi;

- ota-ona, pedagog va bola o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, model integrativ yondashuvning barcha turlarini (ichki, tashqi, faoliyatlararo, sub’yektlar va texnologik integratsiya) bir tizimga birlashtirib, bolaning rivojlanishini kompleks pedagogik ta‘sir asosida ta‘minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur modifikasion model 5–7 yoshli bolalarni maktab ta‘limiga tayyorlashda ilmiy asoslangan, samarali va zamonaviy pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘lib, bolaning barcha rivojlanish sohalarini uyg‘un holda shakllantirishga xizmat qiladi hamda maktab ta‘limiga muvaffaqiyatli moslashuvni ta‘minlaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/. Toshkent-2022 y.
2. Berdiyeva G.Sh. Faoliyatli yondashuv – o'quvchilarda qadriyatli muloqot madaniyatini shakllantirish omili sifatida / Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2022 yil № 2). 86- 91-betlar.
3. Grosheva I.V., Djanpeisova G.E., Mikailova U.T va boshqalar. O'yin orqali ta'lim olish / Metodik qo'llanma (birinchi nashr). Toshkent, 2020 , -88 b.
4. Selevko G.K. Igrovie texnologii // Shkolnie texnologii. 2006. № 4. S. 23-32.
5. Nishanova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 y. – 67 –b.
6. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2018/06/the-future-of-education-and-skills_5424dd26/54ac7020-en.pdf
7. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000189420>.